



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JIZZAX FILIALI



KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI

XALQARO ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI

TO'PLAMI
2-QISM



26-27-SENTABR
2025-YIL



Google
Scholar

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK
TEXNOLOGIYALARI**

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2025-yil 26-27-sentabr)
2-QISM

JIZZAX-2025

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami – Jizzax: O'zMU Jizzax filiali, 2025-yil 26-27-sentabr. 368-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma'ruza tezlari to'plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas'ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay'ati a'zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O'ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo'rayev M.M.

Mazkur to'plamga kiritilgan ma'ruza tezlilarining mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlarning to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

assessments during the six-month project development. The author added that the learners “were more eager to experiment with the new language since they were less concerned with sounding silly” [p. 116]. The eagerness of the learners to participate in the project despite their imperfect English shows the power that PBL can have in student learning and engagement.

In an additional study of 38 high school learners, researches wanted to find out what their learners thought about a PBL teaching approach [Tuncay & Ekizoglu, 2010]. Of the total learners, 19 used a PBL approach for a web design project (the experimental group), while the other class of 19 learners used what the teachers termed a teacher-centered approach and were used as the control group. Both groups were given instruction in web design and were given the assignment to create web projects. The experimental group was instructed to form groups based on interests and perceived talents. They were also allowed freedom to choose their projects rather than being dictated what to do by the teacher.

Conclusion. In summary, the review of literature and classroom-based studies indicates that Project-Based Learning (PBL) holds considerable potential for improving foreign language acquisition, particularly in fostering communication, motivation, and learner autonomy. While scholars such as Beckett [2002] highlight the limited research and mixed reactions of language teachers towards PBL, findings show that when applied within a systematic framework, this approach successfully integrates subject content, language skills, and social development.

Bibliography:

1. Beckett, G. H. (2002). Teacher and student evaluations of project-based instruction. *TESL Canada Journal*, 19(2), 52–66.
2. Fragoulis L. Project-Based Learning in the teaching of English as a foreign language in Greek primary schools: From theory to practice. *English Language Teaching*, 2(3), 2009. – Pp.113-119.
3. Haines, S. (1989). *Projects for the EFL classroom: Resource material for teachers*. Nelson.
4. Hutchinson, T. (1991). *Introduction to project work*. Oxford University Press.
5. Tuncay, N., & Ekizoglu, A. (2010). Project-based learning in web design and development course: An experimental study. *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, 9, 274–278.

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA PEDAGOGIK QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLARNING AHAMIYATI

Komilova Aziza Sunnatullayevna

O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik qobiliyatlarni shakllantirish jarayoni, bu jarayonda bir qator muammolar yuzaga kelishi, bu muammolar kadrlar tayyorlash

tizimidagi samaradorlikni pasaytirishi, sifatli ta'lim berish imkoniyatlarini cheklashi, pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda asosiy to'siqlar sifatida ta'lim dasturlari, amaliy tajriba va o'quv metodlarining zamonaviy talablari, muammolarni aniqlash, ularni hal etish strategiyalari va pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirishning ahamiyati haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Tayanch so'zlar: pedagoglar, pedagogik qobiliyatlar, shakllantirish, muammolar, ta'lim jarayoni, amaliy tajriba, zamonaviy metodlar, malaka, sifat, pedagogik tayyorgarlik, innovatsiyalar, ta'lim sifatini oshirish.

O'qituvchi - pedagogik va psixologik jihatdan o'z ixtisosligi bo'yicha maxsus ma'lumotga ega, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatlariga boy, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir. O'qituvchi ta'lim jarayonida o'qitish shakllarini optimal darajada tashkil etish, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim. [2]

Pedagogik qobiliyatlar - bu o'qituvchi yoki pedagogning ta'lim jarayonini samarali o'tkazish, talabalarni motivatsiya qilish, ularni rivojlantirish va o'z bilimlarini ularga yetkazish qobiliyatidir. Bu qobiliyatlar pedagogning o'z professionallik darajasini oshirish, ta'lim usullarini tanlash, talabalar bilan samarali muloqot o'rnatish va ularning ehtiyojlariga mos ravishda yondashish kabi vazifalarni bajarishda muhim ahamiyatga ega. Pedagogik qobiliyatlar o'qitish jarayonida muvaffaqiyatga erishishda va talabalarni sifatli ta'lim bilan ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi.

Pedagogik qobiliyatlar - bu pedagogning ta'lim jarayonida o'z bilim va ko'nikmalarini samarali qo'llay olish qobiliyatidir. Pedagogik qobiliyatlar bir qancha jihatlarni qamrab oladi. Bulardan eng asosiy jihatlari sifatida o'qitish ko'nikmalari, kommunikatsiya, psixologik tushunish, tashkilotchilik, innovatsion yondoshuvlar, baholash va tahlil kabilardir.

- **O'qitish ko'nikmalari:** talabalarga murakkab materialni tushuntirish va ularni o'rganishga rag'batlantirish.

- **Kommunikatsiya:** talabalar bilan samarali muloqot qilish, ularning fikrlarini eshitish va tushunish.

- **Psixologik tushunish:** o'quvchilarni ong va hissiyotlar nuqtai nazaridan tushunish va ularga mos ravishda yondashish.

- **Tashkilotchilik:** o'quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etish qobiliyati.

- **Innovatsion yondashuvlar:** zamonaviy texnologiyalar va usullarni ta'lim jarayonida qo'llay olish.

- **Baholash va tahlil:** o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash va ularni rivojlantirish uchun zarur chora-tadbirlarni aniqlash.

Pedagogik qobiliyatlar - pedagogning professionallik darajasi va ta'lim sifatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun ham oliy o'quv yurtlarida bo'lajak pedagoglarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirish muhim ahamiyatga egadir. Ammo pedagogik qobiliyatlarni shakllantirish osonlik bilan kechmaydi. Bo'lajak pedagoglarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda yuzaga keladigan

muammolar bir nechta jihatdan ahamiyatga ega bo'lib bularga ta'lim sifatiga ta'siri, o'qituvchining o'ziga xosligi, innovatsion yondoshuvlar, o'zaro munosabatlar, kasbiy rivojlanishlar kiradi.

1. Ta'lim sifatiga ta'siri: Pedagogik qobiliyatlar yetarlicha rivojlanmasa, ta'lim jarayonining sifati pasayishi mumkin. Bu esa o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini yetarlicha rivojlantirishga to'sqinlik qiladi.

2. O'qituvchining o'ziga xosligi: Pedagogik qobiliyatlar, masalan, muloqot, metodika va ijodkorlik, o'qituvchining professionalligini shakllantiradi. Muammolar bu professionallikni shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3. Innovatsion yondoshuvlar: Pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda yuzaga keladigan muammolar yangilanish va innovatsion ta'lim metodlarini qabul qilishda to'siq bo'lishi mumkin.

4. O'zaro munosabatlar: O'qituvchining qobiliyatlari o'quvchilar bilan sifatli aloqani ta'minlaydi. Muammolar bu aloqalarni zaiflashtirib, ta'lim jarayonini qiyinlashtirishi mumkin.

5. Kasbiy rivojlanish: Pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirishdagi muammolar o'qituvchining kasbiy o'sishiga to'sqinlik qiladi, natijada pedagogik munosabatlarda ma'lum bir darajada o'sishdan to'xtash holati yuzaga kelishi mumkin. Shunday qilib, bo'lajak pedagoglarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda yuzaga keladigan muammolar ta'lim tizimining muvaffaqiyati va sifatini belgilovchi muhim omillardir. Ularni hal etish maxsus yondoshuv va treninglarni talab etadi. [3]

Pedagogik qobiliyatlarni shakllantirish ta'lim sifatiga bir necha jihatdan ya'ni o'qitish samaradorligi, individual yondoshuv, ijtimoiy va emotsional muhit, tanqidiy fikrlash, natijalar va baholash kabilarga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

O'qitish samaradorligi bu - o'qituvchilarning pedagogik qobiliyatlari yuqori bo'lsa, ular darsni samarali o'tish, mavzuni tushunarli va qiziqarli tarzda taqdim etish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu o'quvchilarning diqqatini jalb qilish va ularni faol ishtirok etishga undaydi.

Individual yondoshuv - Pedagogik qobiliyatlar o'qituvchilarga har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish, individual ziyraklik darajasini aniqlash va shunga mos ravishda o'qitish usullarini tanlash imkonini beradi. Bu esa ta'lim sifatini oshiradi.

Ijtimoiy va emotsional muhit - O'qituvchilarning qobiliyatlari o'quvchilarning ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga ta'sir etadi. O'qituvchilar ijobiy muhit yaratish orqali o'quvchilarning o'z-o'zidan ishtirok etishini rag'batlantirishi mumkin.

Tanqidiy fikrlash - Pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirish o'qituvchilarga o'quvchilarga tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini o'rgatishga yordam beradi. O'quvchilar mustaqil va ijodkor fikr tarzini rivojlantiradilar, bu esa ta'lim sifatini oshiradi.

Natijalar va baholash - Qobiliyatli o'qituvchilar o'quvchilarning yutuqlarini to'g'ri baholay oladi va ularga tezkor va samarali ma'lumot beradilar. Bu o'quvchilarning rivojlanishini muvofiqlashtirishga yordam beradi. Ushbu fikrlardan kelib chiqqan

xolda aytish mumkinki, pedagogik qobiliyatlarni shakllantirish ta'lim sifatining asosiy omillaridan biri hisoblanadi va u o'quvchilarning muvaffaqiyatini belgilaydi. O'qituvchilarning malakasi va qobiliyatlari samarali ta'lim jarayonini tashkil qilishda muhim rol o'ynaydi.

Pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda o'qituvchining o'ziga xosligi ham muhim ahamiyatga ega bo'lib uning professional faoliyatini va o'quvchilarga ta'sir ko'rsatishini belgilaydi. O'qituvchining o'ziga xosligi uning shaxsiy xususiyatlari, pedagogik uslublari, ijodkorligi, qobiliyat va malakalari, tajribasi, maqsad va motivatsiyasida namoyon bo'ladi.

1. Shaxsiy xususiyatlar: O'qituvchining xarakteri, emotsional barqarorligi, sabr-toqati va ijtimoiy ko'nikmalari o'ziga xosligini shakllantiradi. Bu xususiyatlar o'quvchilar bilan samimiy aloqalarni ta'minlaydi.

2. Pedagogik uslublari: Har bir o'qituvchi o'ziga xos o'qitish uslublarini tanlaydi. Bu uslublari o'qituvchining tajribasi, shaxsiy bilimlari va insonlarga nisbatan munosabatlariga bog'liq bo'ladi.

3. Ijodkorlik: O'qituvchining ijodiy yondoshuvi darslarni qiziqarli va samarali qilishda muhim ahamiyatga ega. Ijodkor o'qituvchilar yangi metod va materiallardan foydalanib, o'quvchilarning qiziqishini oshirishi mumkin.

4. Qobiliyatlar va malakalar: O'qituvchining pedagogik qobiliyatlari (masalan, muloqot, muammo yechish, analiz va sintez) uning professional o'ziga xosligini belgilaydi. Malakali o'qituvchilar o'z qobiliyatlarini doimiy ravishda rivojlantirishga intiladilar.

5. Tajriba: O'qituvchining professional tajribasi uning o'ziga xosligi va ta'lim jarayonida muvaffaqiyatiga ta'sir qiladi. Katta tajribaga ega o'qituvchilar tajribalaridan foydalangan holda muammolarni hal qilishda yanada samarali bo'lishadi.

6. Maqsad va motivatsiya: O'qituvchining professional maqsadlari va motivatsiyasi o'ziga xoslikka ta'sir ko'rsatadi. Ta'limga bo'lgan ishtiyoqli yondoshuv o'qituvchini o'z faoliyatida ko'proq muvaffaqiyatga erishishga olib keladi. [4] Demak o'qituvchining o'ziga xosligi ta'lim jarayonida muhim rol o'ynaydi, chunki u o'quvchilarning rivojlanishiga va ularning ta'lim samaradorligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek pedagogik faoliyatda innovatsion yondoshuvlar ta'lim jarayonida samaradorlikni oshirish, o'quvchilarni faol ishtirok etishga rag'batlantirish va o'quv materiallarini qiziqarli qilish uchun qo'llaniladi. Bu jarayondagi innovatsion yondoshuvlarga faol o'qitish, tekshirish va baholash, texnologiyalarni integratsiya qilish, aralash ta'lim, individual yondoshuvni keltirish mumkin. Bunda faol o'qitish o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydigan yondashuv. Bu o'rganishni amaliy tajriba orqali amalga oshirishni, guruh ishlarini, muammolarni hal qilishni o'z ichiga oladi. Tekshirish va baholashga innovatsion baholash metodlari, masalan, o'z-o'zini baholash, guruh baholash yoki alternativ baholash usullarini qo'llash orqali o'quvchilarning individual yutuqlarini aniqlashdir. Texnologiyalarni integratsiya qilish ta'limda raqamli texnologiyalar va onlayn resurslarni ishlatish. Masalan, interaktiv

platformalar, o'qitish dasturlari, virtual sinflar va mobil ilovalaridan maqsadli foydalanish. Aralash ta'lim an'anaviy darslar va onlayn formatlarni birlashtirish orqali o'quvchilarga o'z qiziqishlari va ritmlariga mos ravishda o'qish imkonini beradi. Shuningdek o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ravishda o'rganishni ta'minlash. Har bir o'quvchining kuchli va zaif tomonlarini inobatga olib, individual yo'nalishlarni belgilash. Kreativlik va innovatsiyalarga rag'batlantirish: O'qituvchilar o'quvchilarda yangi g'oyalarni rivojlantirish va ijodkorlikni oshirishga qaratilgan muhit yaratishlari kerak. Innovatsion yondoshuvlar ta'lim sifatini oshirishga, o'quvchilarning qiziqishlarini kuchaytirishga va ular bilan yanada muvaffaqiyatli aloqa o'rnatishga yordam beradi. Xulosa qilib aytganda bu yondashuvlar bo'lajak pedagoglar uchun ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishning muhim omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Pedagogika" - M. P. Rakhimov, D. N. Ibragimov, 2018
2. Xoliqov.A.A. "Pedagogik mahorat". Darslik-T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011.
3. "Ta'limda innovatsiyalar: pedagogik qobiliyatlar" - Sh. R. Alimov, 2019
4. "Pedagogik psixologiya" - N. M. Shirinova, 2017
5. Komilova,A., Husenova,M., & Xidirova,M.(2023). O'SMIR YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI KASB HUNARGA YO'NALTIRISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, 3(1).
6. Aziza,K.,&Xurshida, M. (2023). TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 419-422.
7. Aziza, K.,&Mohinabonu,H.(2023).TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 87-89.
8. Komilova,A.S.(2023). O 'QUV TARBIYA JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA INDIVIDUAL YONDOSHUV. GOLDEN BRAIN, 1(31), 126-133.
9. Norbekova, B., Komilova, A., Arakulov, G., & Adilova, M. (2024, June). Formation of Network Attack Detection System Architecture. In International Conference on Inventive Communication and Computational Technologies (pp. 431-440). Singapore: Springer Nature Singapore.